

PUDRAT SHARTNOMASI №

Keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Nurota tumani Xalq ta'limi** nomidan «Nizom» asosida ish yurituvchi **B.Bobonazarov** bir tomondan, keyingi o'rnlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan ASHRAF x/k nomidan "Ustav" asosida ish yurituvchi **Asomov Adil Kazimovich** ikkinchi tomondan, Nurota tumani BABM mifiktabini joriy ta'mirlash ishlariiga mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar

I. TARIFLAR

1. Bajariladigan qurilish ishlari loyiha asosan olib boriladi, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar va bajarilgan ishni buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomasi (Forma-2) asosida ish olib boriladi.

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomada bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnataladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra **Nurota tumani BABM** mifiktabini joriy ta'mirlash ishlari **summasi 597 000 000.so'm** bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi. "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosи (tender) natijasida aniqlangan va erkin tanlov komissiyasining qarori (2022 yil 06.09 №143379-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **597 000 000 (Besh yuz to'qson yetti million so'm)** ni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda; ishlar hajmi va turi qat'iy ravishda o'zgartirilmaydi (qonunda kuzda tutilgan xollar bundan mustasno);

ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

SHartnomaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnomalar mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta’minalash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish;

qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta’minalash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnomada bo‘yicha barcha ishlarning o‘z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob‘ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to‘liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnomalar imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga - ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob‘ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo‘lgan davrda dalolatnomalar bo‘yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’minalash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnomalar imzolangan va tegishli ravishda ruyxatga olingan kundan boshlab Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ijro hujjatlari ro‘yxatini taqdim etish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

10. SHartnomalar:

milliy valyuta "so‘mda" o‘zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so‘mda" o‘zaro hisob-kitob qilinganda - shartnomalar qonun hujjatlariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi

avans to‘lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo‘yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlarni boshlangan kundan e’tiboran kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnomalar bo‘yicha ishlarni Smeta xujjalalariga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV.

14. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o‘ziga nisbatan qo‘llaniladigan barcha, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

15. Iste’molchi ushbu shartnomalar amalda bo‘lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta’minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta’minotchi korxonaning hamda

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, xamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuning 25-32 moddalar, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 212-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar uni imzolaganlaridagina haqqoniydir.

VIII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

16. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu **179 100 000 (Bir yuz yetmish to'qqiz million bir yuz ming so'm)** ni tashkil etadi.
17. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berilgandan so'ng, keyingi tulov "Bajarilgan ishlar" dalolatnomasiga (forma-2) asosan amalga oshiriladi.
18. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqni o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.
19. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

IX. ISHLARNI BAJARISH

20. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga asosan ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
21. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.
22. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.
23. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va etishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.
24. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.
Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.
25. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.
26. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.
27. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning

sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

28. Alovida mas‘uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo‘lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

29. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig‘isiz bajarilgan bo‘lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo‘lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo‘lsa, u holda uning talabi bo‘yicha Pudratchi Buyurtmachining ko‘rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o‘z hisobidan ochishga, so‘ngra esa uni tiklashga majburdir.

30. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o‘z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko‘paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta‘minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to‘laydi.

31. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko‘cha polosasini, shu jumladan yo‘l uchastkalari va yo‘laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonдан qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

32. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o‘zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo‘lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo‘lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o‘tkazilgan sinovlar, materiallar o‘z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bog‘liq to‘xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan barcha ma’lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o‘z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

X. Ishlarni qo‘riqlash

33. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob‘ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to‘silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo‘riqlanishini ta‘minlaydi.

34 . Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob‘ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

XI. Qurilishi tugallangan ob‘ektni qabul qilib olish

35. Qurilishi tugallangan ob‘ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo‘lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob‘ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

36. Ob‘ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to‘g‘risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab Ob‘ektni qabul qilish muddati kun mobaynida qabul qilib olinadi.

37. Pudratchi qurilishi tugallangan ob‘ektni qabul qilib olish boshlanishidan Hujjatlarni taqdim etish muddati kun oldin mazkur shartnomaning V bo‘limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga

ushbu hujjatlar to‘plami amalda bajarilgan ishlarga to‘liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

38. Qabul qilib olingen paytdan boshlab ob’ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. ENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

39. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa engib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiylarni bajarish muddati engib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

40. Agar engib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

41. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XIII. KAFOLATLAR

42. Pudratchi:barcha ishlar to‘liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiqa hujjatlariga hamda qurilish me’yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish majburiyatini;

o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ob’ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nusonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

43. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko‘rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo‘yicha xo‘jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIV. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

44. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog‘liq bo‘lмаган sabablarga ko‘ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko‘paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me’yorlari va qoidalariда nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

45. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog‘liq bo‘lмаган sabablarga ko‘ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

46. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo‘shma qaroriga ko‘ra tugallanmagan eurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to‘laydi.

47. Mazkur shartnomani bekor eilishga qaror qilgan tomon mazkur bo‘lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

48. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.
49. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

50. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

51. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.01 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

52. SHartnomaga muvofiq bajarilgan ishlarni tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.03 foizi miqdorida jarima to'laydi.

53. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.05 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 0.05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

54. Agar bajarilgan ishlarni sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'limasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitekteurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'limagan ishlarni qiymatining 0.05 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

55. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananidigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

56. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XVI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

57. Shrtnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVII. ALOHIDA SHARTLAR

58. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtaсидаги барча олдинги ўзмас ва оғзаки битимлар, ўзишмалар, томонларнинг о'заро келишувлари о'з кучини ўқотади.

59. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.
60. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular amaldagi konunlarga asoslangan ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.
- . Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaqidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni asoslangan xolda rasmiylashtirilishi va amaldagi konunlarga asoslanib tasdiqlashi kerak.
61. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.
62. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.
63. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.
64. Shartnoma yuridik xizmat ko'rsatish markazidan qonunga muvosifligi to'g'risida huquqiy xulosa olingandan so'ng taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi. Amal qilish muddati 25 dekabr 2022 yilgacha qadar etib belgilandi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

«Pudratchi»

"ACHIRAF" X/K

(ijrochining nomi)

oluvchi nomi)

Manzili: Nurota tumani

Nurota chaxar Konchilar14.uy

tel\faks 94-377-37-74

x\r 20208000800346697001

bank nomi AT Agro banki filial

MFO 00214 INN 201 934 896

OKONX 61110

SHARAF TOSUMLASI 30806542360018

Raxbar

Asomov Adil Kazimovich

(F.I.SH.)

(imzo)

M.O.



«Buyurtmachi»

Nurota tumani XTBg'a qaratshli BABM

(byudjet mablaglarini

manzili Nurota tumani

M.Raximov kuchasi

tel\faks 97-321-22-79

h\xv 100228601223870961000750011

bank nomi Markaziy bank Toshkent

MFO 00014 INN 200 030 979

OKONX 97600

G'aznachilik bo'lim nomi: Nurota

Tumani G'aznachilik bo'linmasi



B. Bobonazarov

(imzo)

M.O.

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.



Imzolovchi F.I.SH.	BAYRAMALI BOBONAZAROV BAHRONOVICH
Imzolangan sana	7 сен 2022 17:50
Hujjat kodi	EQ4721563601
Hulosha kodi	ZF0548242362

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№

1. Loyihaning turi:

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Pudrat shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Nurota tuman xalq ta'lif bo'limi, 07.09.2022 yil.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Nurota tuman xalq ta'lif bo'limi va "ASHRAF" xususiy korxonasi o'rtaida umumiy summasi 597 000 000 (besh yuz to'qson yetti million) so'm bo'lgan pudrat shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yildagi "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatichiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-208-son Qarori talablari asosida tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdag'i "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi" 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



M.Mamatqulov

07.09.2022 yil.

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 143379 на приобретение Текущий ремонт здание Баркамол Авлод Нуратинского Района 1 Этап

Способ проведения электронный

Дата 06.09.2022

Время рассмотрения 06.09.2022 11:32

Конкурсная комиссия Нурота туман Халк таълими булими Марказлашган, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	BOBONAZAROV BAYRAMALI BAHRONOVICH	Nurota tumani XTB Mudiri komissiya raisi	Tuman XTB
Секретарь комиссии	Бозорова Холбону Жумаевна	Туман ХТБ хисобхонаси хисобчиси комиссия аъзоси	Туман ХТБ
Член комиссии	JUMANIYOZOV MUXIDDIN MUZAFFAROVICH	Tuman xalq ta'limi bo'lim o'rinnbosari komissiya a'zosi	Tuman XTB
Член комиссии	MUXIDDINOV TOHIR NASRIDDINOVICH	Tuman xalq ta'limi kasaba uyushma qo'mita raisi kamissiya a'zosi	Tuman XTB
Член комиссии	AVULOV RAXMON AMONOVICH	Tuman xalq ta'limi ekspulatatsiya bo'lim boshligi kamissiya a'zosi	Tuman XTB
Член комиссии	BOZOROV JO'RABEK MAMURJONOVICH	Нурота тумани Халк таълими булими эксплуатация бўлими бошлиғи ёрдамчиси комиссия аъзоси	ХТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 06.09.2022 года № лота 143379.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту зданий
Подробное описание	Текущий ремонт здание Баркамол Авлод Нуратинского Района 1 Этап
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	597 836 800.00
Стартовая сумма	597 836 800.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк ва соликдан карзи йуклиги тўғрисида маълумот, кайси турдаги солиқ тўловчи эканлиги тўғрисида маълумот, хозирги кундаги молиявий холати тўғрисида маълумот.Ўз балансида асосий фондларга, мулкларга тақиқ кўйилмаганлиги тўғрисида маълумот, тегишли ташкилотлардан маълумотлар олиниб юкланиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Банк ва соликдан карзи йуклиги тўғрисида маълумот, кайси турдаги солиқ тўловчи эканлиги тўғрисида маълумот, хозирги кундаги молиявий холати тўғрисида маълумот.Ўз балансида асосий фондларга, мулкларга тақиқ

Кўйилмаганлиги тўғрисида маълумот, тегишли ташкилотлардан маълумотлар олиниб юкланиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	30	30	30	Экспертная		
LAZIZ XK	30	30	15	Экспертная		

Критерий №2 Пудрат ташкилотининг 2022 йил давомида бажарган ишлари тўғрисида маълумот Шартнома ва форма-3 нусхалари. Бажарилган ишларнинг сонига ва ҳажмига қараб бал берилади.

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилотининг 2022 йил давомида бажарган ишлари тўғрисида маълумот Шартнома ва форма-3 нусхалари. Бажарилган ишларнинг сонига ва ҳажмига қараб бал берилади.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	20	20	20	Экспертная		
LAZIZ XK	20	20	12	Экспертная		

Критерий №3 Ташкилот низоми, руйхатдан ўтказилганилиги тугрисида гувохнома нусхаси..

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилот низоми, руйхатдан ўтказилганилиги тугрисида гувохнома нусхаси..

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	10	10	10	Экспертная		
LAZIZ XK	10	10	10	Экспертная		

Критерий №4 Пудрат ташкилотининг ишчилари, маълумоти тўғрисида маълумот, буйруқ ва диплом нусхалари.

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилотининг ишчилари, маълумоти тўғрисида маълумот, буйруқ ва диплом нусхалари.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	20	20	20	Экспертная		
LAZIZ XK	20	20	20	Экспертная		

Критерий №5 Пудрат ташкилотида мавжуд машина механизмлари тўғрисида маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилотида мавжуд машина механизмлари тўғрисида маълумот.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	15	15	15	Экспертная		
LAZIZ XK	15	15	15	Экспертная		

Критерий №6 Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида маълумот.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	10	10	10	Экспертная		
LAZIZ XK	10	10	10	Экспертная		

Критерий №7 Ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги, Коррупцияга оид хукуқбузарликларга йўл қўймаслик бўйича кафолат хатлари.

Тип: Текстовое значение

Описание: Ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги, Коррупцияга оид хукуқбузарликларга йўл қўймаслик бўйича кафолат хатлари.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"ASHRAF" xususiy korxonasi	10	10	10	Экспертная		
LAZIZ XK	10	10	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"ASHRAF" xususiy korxonasi	597 836 800.00	597 000 000.00 UZS	597 000 000.00	00.00	597 000 000.00	30.08.2022 21:17:16	07.02
LAZIZ XK	597 836 800.00	419 000 000.00 UZS	419 000 000.00	00.00	419 000 000.00	04.09.2022 16:01:50	10.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"ASHRAF" xususiy korxonasi	90	7.02	97.02
LAZIZ XK	72	10	82

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 143379 от 06.09.2022 года на приобретение Текущий ремонт здание Баркамол Авлод Нуратинского Района 1 Этап определила победителем:

"ASHRAF" xususiy korxonasi
201934896

и резервный исполнитель: LAZIZ XK (201665266)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	BOBONAZAROV BAYRAMALI BAHRONOVICH	Согласен	
Член комиссии	JUMANIYOZOV MUXIDDIN MUZAFFAROVICH	Согласен	
Член комиссии	MUXIDDINOV TOHIR NASRIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	AVULOV RAXMON AMONOVICH	Согласен	
Член комиссии	BOZOROV JO'RABEK MAMURJONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП